

YANGI KONSTITUTSIYA - IJTIMOY HUQUQLAR KAFOLATI

Meyliyev Kamoliddin Otabek o'g'li
Eshmurodov Shokir G'ayrat o'g'li
Abdiqahhorov Davlatbek Muzaffar o'g'li
Termiz Davlat Universiteti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda amalga oshirilgan muhim siyosiy jarayon Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi hamda Konstitutsiyada inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini Bosh qomusimiz darajasida kafolatlanganligi, ijtimoiy huquqlarning takomillashtirilganligi haqida so'z boradi.

Bugungi globallashuv jarayoni har bir insonning yangicha fikrlab, bugungi taraqqiyotga mos va xos ravishda yashashni taqazo etmoqda. Xususan, mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy sohadagi islohotlar aynan fuqarolarimizning rivojlanishini ta'minlab bermoqda. Albatta, bugungi siyosiy islohotlar yurtdoshlarimizning ertangi kunga nisbatan dunyoqarishini va ishonchini oshirmoqda.

Yangilangan Konstitutsiya aynan ijtimoiy huquqlarimizning yanada kafolatlanganligi bilan ahamiyatlidir. Bugungi kunda ijtimoiy himoya takomillashtirilmoqda. Ta'lim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish, ijod qilishga shart-sharoitlar berilmoqda. Shuningdek nogironligi bor ijtimoiy himoyaga muhtojlar uchun davlat tomonidan ijtimoiy kafolatlar yanada ko'paytirilmoqda.

Konstitutsiyamizning 1-moddasiga ijtimoiy davlat so'zining qo'shilishi ham bugungi kunda inson qadri va uning manfaatlari qay darajada kafolatlanayotganini belgilab berdi. Konstitutsiyamizning ikkinchi bo'limi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan bo'lib, bugungi Konstitutsiya davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlarini 3 barobarga oshirdi. Shuningdek, Konstitutsiyamizning 9-bobi aynan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, va ekologik huquqlarga bag'ishlangan. Masalan, 46-moddada har kim qariganda, mehnat qobiliyati yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo'qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot huquqiga ega ekanligi keltirilgan. Bu esa pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi kafolatli to'lovlarning berilishini Konstitutsiya asosida kafolatlanganligini ko'rsatadi.

Konstitutsiyamizning 47-moddasi xalqimizning ko'p yillik orzu umidlari sifatida namoyon bo'ldi. Ya'ni ushbu moddaga asosan har kim uy-joyli bo'lishi belgilandi. Davlat uy-joy qurilishini nazoratga oladi hamda ushbu huquqdan ya'ni uy-joyli bo'lish huquqiga erishish uchun fuqarolarga shart-sharoit yaratiladi. Ya'ni davlat tomonidan imtiyozli uylar qurilishi ko'paytiriladi.

Ijtimoiy huquqlarning eng keragi bo'lan huquq bu tibbiy xizmatdan foydalanish huquqimiz. Bu huquqimiz Konstitutsiyamizning 48-moddasida belgilangan bo'lib, har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. Ushbu moddaga



qo'shilgan asosiy o'zgarish bu sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish to'g'risidagi normadir.

Yangilanayotgan Konstitutsiyada yana bir muhim yangilanish sifatida qaralayotgan normalar o'qituvchilarning huquqiy maqomini kafolatlash, majburiy mehnat to'g'risidagi yangi norma, mehnatga haq to'lashdagi imtiyozlar, advokatlik faoliyatining kafolatlari hamda boshqa ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar qo'shilmogda.

Yangilanayotgan Konstitutsiyada ta'lim olish huquqini yanada kafolatlashga ham katta e'tibor qaratildi. Xususan, "fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishiga haqli" degan yangi norma qo'shilishi kelgusida oliy ta'lim muassasalarida davlat grandlari soni oshib borishini kafolatlaydi. Shuningdek, oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga egaligi belgilab qo'yilmoqda.

Yangi Konstitutsiya asosan inson huquq va erkinliklarida ko'p o'zgarishlari bilan xalqimiz e'tibor markazida bo'lmoqda. Xalqchilik asosida tayyorlangan Yangi Konstitutsiya qabul qilinishi, xalqimiz tomonidan katta xursandchilik bilan qabul qilindi. Bu islohotlar inson hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlari yo'lida davlat siyosatining muhim faoliyati desak bo'ladi. Zotan, so'nngi yillarda mamlakatimizda inson huquq va manfaatlari yo'lida muhim islohotlar amalga oshirildi. Xalqimizning dunyoqarashi va ertangi kunga bo'lgan orzu umidlari o'zgardi. Inson qadri tamoyilida qilingan va qilinayotgan islohotlarni Konstitutsiyada kafolatlash muhim degan g'oya bilan, bugun xalq Konstitutsiyasi qabul qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Konstitutsiyaviy huquq darsligi
3. www.lex.uz
4. www.minjustuz.ru
5. www.constitution.uz

